MELLORI-VEYS SINDROMIDA DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH YONDASHUVLARINING MUTANOSIBLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Ashuraliyev Sh.X.

1 sonli fakultet va gospital jarrohlik kafedrasi assistenti, Tashkent, Uzbekistan, shohjahonashuraliev93@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mellori–Veys sindromi diagnostikasi va davolash yondashuvlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Klinik kuzatuvlar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ushbu sindromning patogeneziga oid muhim jihatlar hamda endoskopik va laborator usullar orqali diagnostikaning samaradorligi baholangan. Davolashda konservativ va jarrohlik usullarining mutanosibligi, bemor holatiga mos ravishda individual yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari Mellori–Veys sindromida erta tashxis qo'yish va optimal davolash usullarini tanlash klinik samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Mellori–Veys sindromi, oshqozon-ichak qon ketishi, diagnostika, endoskopiya, davolash usullari, konservativ terapiya, jarrohlik aralashuvi, klinik samaradorlik

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования диагностики и лечебных подходов при синдроме Маллори–Вейсса. На основе клинических наблюдений и анализа современных научных источников оценены ключевые аспекты патогенеза данного синдрома, а также эффективность эндоскопических и лабораторных методов диагностики. Особое внимание уделено соотношению консервативных и хирургических методов лечения, а также значению индивидуализированного подхода в зависимости от состояния пациента. Полученные результаты показывают, что ранняя диагностика и выбор оптимальной тактики лечения способствуют повышению клинической эффективности при синдроме Маллори–Вейсса.

Ключевые слова: синдром Маллори–Вейсса, желудочно-кишечное кровотечение, диагностика, эндоскопия, методы лечения, консервативная терапия, хирургическое вмешательство, клиническая эффективность.

Abstract. This article discusses the improvement of diagnostic and therapeutic approaches in Mallory–Weiss syndrome. Based on clinical observations and a review of modern scientific literature, the main aspects of the pathogenesis of this syndrome and the effectiveness of endoscopic and laboratory diagnostic methods are evaluated. Particular attention is given to the balance between conservative and surgical treatment methods, as well as the importance of individualized approaches depending on the patient's condition. The findings demonstrate that early diagnosis

ISSN 3030-3907

and the selection of optimal treatment strategies significantly enhance clinical outcomes in Mallory–Weiss syndrome.

Keywords: Mallory–Weiss syndrome, gastrointestinal bleeding, diagnostics, endoscopy, treatment methods, conservative therapy, surgical intervention, clinical effectiveness

Mavzuning dolzarbligi:

Mellory-Veys sindromi (Mellory-Veys yorilishi) — oshqozonning kardial qismi va distal qismidagi bo‘ylama shilliq qavat yorilishi bilan xarakterlanadigan, yuqori oshqozon-ichak yo‘llaridan qon ketishi bilan kechadigan o‘tkir holatdir. O‘z vaqtida to‘g‘ri tashxis qo‘yilib, davolansa nisbatan qulay prognozga ega bo‘lishiga qaramay, ushbu sindrom yuqori oshqozon-ichak qon ketishining muhim sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ba’zi holatlarda kasallikning og‘irligi ortiqcha baholanishi yoki, aksincha, yetarlicha baholanmasligi natijasida asossiz ravishda haddan tashqari agressiv yoki yetarli bo‘lmagan davolash taktikasi qo‘llaniladi.Bugungi kunda diagnostika va davolash yondashuvlarining proporsionalligini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda — ya’ni bemorning klinik xususiyatlari va qon ketish darajasiga muvofiq ravishda yetarli, asoslangan diagnostik tadbirlar hajmi va optimal terapevtik usullarni tanlashni ta’minlash. Bu qon ketish qaytalanishi chastotasini kamaytirish, asoratlar xavfini pasaytirish va tibbiy resurslardan samarali foydalanishni oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, Mellory-Veys sindromini diagnostika qilish va davolashni optimallashtirish masalalarini o‘rganish, ya’ni tibbiy yordamni individuallashtirish va ratsionallashtirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy gastroenterologiya va endoskopiyaning dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maqsad: Mellori-Veys sindromi bilan og’rigan bemorlarda yangicha tasnif yaratish va shu tasnif asosida zamonaviy davolash algoritmlarini takomillashtirilgan dasturini ishlab chiqish.

Materiallar va usullar:

2022-yildan 2024-yilgacha vaqt oralig’ida Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Ko’p tarmoqli klinikasi Shoshilinch jarrohlik bo’limida Mellori-Veys sindromi bilan 64 ta kasal davolandi. Biz bemorning yoshiga, endoskopik taxlil natijalariga, kasallik etiologiyasiga, qon ketish intensivligiga ko’ra va bemorning yondosh kasalliklari bor yoki yo’qligiga qarab yangicha tasnif va maxsus zonddan foydalanib yangi davolash usullarini ishlab chiqdik.

Natijalar:

Kuzatuvda bo’lgan 64 ta bemorning 24 (37.5%) tasida ya’ni passiv qon ketishi bilan kechuvchi Mellori-Veys sindromida konservativ davo muolajalari

ISSN 3030-3907

ijobiy natijalarni berdi. Konservativ davo ijobiy natija bergan davolanish jarayonida maxsus zonddan foydalanish shart emas. Biroq konservativ davo muolajalaridan so'ng 2(8.33%) ta bemorda qon ketishi qayta kuzatildi va bemorlarda maxsus zond qo'yildi. Maxsus zond 1-kun ishchi xolatda turdi va ikkinchi kuni bo'shatilib endoskopik klipsalash amaliyoti bajarildi. Aktiv qon ketishi bilan kechgan va kuzatuvimizda bo'lgan 40 ta bemorlarda maxsus zond qon ketishini to'xtatishda yordam berdi. Nazorat endoskopik tekshiruvi 2- kuni bajarilganida 37(57.8%) ta bemorda qon ketish to'xtaganligi aniqlandi. Maxsus zondning asosiy vazifasi bu yerda kompressiya xisobiga qon ketishini to'xtatib turishdan iborat bo'ldi. 3 (4.6%) ta bemorda jigar yetishmovchiligi kuzatilganligi, qon ivish faktorlari yetishmovchiligi, qon ivuvchanligi yuqori bo'lganligi, oshqozonda o'tkir yaralar borligi sababli maxsus zond bemorlarda samara bermadi. Qolgan 37 (57.8%) ta bermorda maxsus zond kerakli kompression gemostatik natijani berdi. Qolgan 3 (4.6%) ta bemorga zudlik bilan endoskopik usulda klipsalash analiyoti bajarildi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bemorlarga o'zimiz yaratgan tasnif bo'yicha, aktiv qon ketishi bilan kechuvchi Mellori- Veys sindromi bilan og'rigan va yondosh kasalliklar bilan og'rimagan bemorlarda 37 (57.8%) tasida maxsus yaratilgan zond ijobiy natija berdi. Yondosh kasalliklari bor, jigar yetishmovchiligi aniqlangan, qon ivish faktorlari yetishmovchiligi aniqlangan va qon ivuvchanligi yuqori bo'lgan bemorlarda qayta qon ketish xavfi yuqoriligini inobatga olish kerak va bunday xolatlarda endoskopik gemostatik amaliyotlarni tavsiya qilish kerak. Passiv qon ketishi bilan kechuvchi Mellori-Veys sindromida konservativ davo muolajalari yuqori samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pantsirev U.M., Fedorov V.D., Timofeev M.E., MikchalevA.I. Endoscopic treatment of bleeding caused by Mallory—Weiss syndrome. Surgery, 2023, no. 10, pp. 35—40.

2. Timerbulatov Sh.V., Timerbulatov V.M., Hasanov A.G., Sagitov R.B., Peculiarities of medical tactics at Mallory—Weiss syndrome. Surgery, 2019, no. 4, pp. 33—36.

3. BorisovA.E., Kuzmin-KruteskiyM.I., KashenkoV.A. Krovotecheniya portalnogo geneza. SPb. EFA, 2021. 126 s.

4. LitkinM.I., EryuxinI.A., DidenkoV.M. Otdalennie rezultati lecheniya bolnix s portalnoy gipertenziey, oslojnennoy gastroduodenalnim krovotecheniem // Vestn. xir. 2022. № 12. S. 1115.

ISSN 3030-3907

5. Pasiora M.D., ShersingerA.G. Xirurgicheskoe lechenie vnutri pechenochnoy portalnoy gipertenzii //Xirurgiya portalnoy gipertenzii (oshibkiiopasnosti). M., 2019. S. 6-15.
6. SherlokSH., DuliDj. Zabolevaniya pecheni I jelchnix putey: prakt. rukovodstvo / persangl. [podred. Z.G. Aprosinoy, N.A. Muxina]. M.: GOETAR-Media, 2023. 187 s.

ISSN 3030-3907